


VIII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Ellikqal'a tumanida 2022 yilning 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni 164,6 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 2,6 ming kishiga yoki 101,6 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni
(2022 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)

	Jami aholi soni	Jami aholi sonidan:	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 948,5	954,3	994,2
Ellikqal'a tumani	164,6	20,2	144,4
Ulushi, %	8,4	2,1	14,5

Shahar va qishloq aholisi tarkibi (foizda)



Shuningdek, 2022 yilning 1 yanvar holatiga Ellikqal'a tumanida 50,2 % ayollar va 49,8 % erkaklar tashkil etgan. Demak, Ellikqal'a tumanida ayollar soni erkaklar soniga nisbatan ko'proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>Kishi</i>		<i>o'sish, kamayish</i>	<i>har 1000 aholiga, nisbatan</i>	
	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.¹⁾</i>		<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.¹⁾</i>
Tug'ilganlar	3 844	3 678	-166	23,9	22,5
O'lganlar	628	663	35	3,9	4,1
shu jumladan					
1 yoshgacha bolalar o'limi*	24	16	-8	6,2	6,7
Tabiiy o'sish	3 216	3 015	-201	20,0	18,4
Nikohlar	1 112	1 391	279	6,9	8,5
Ajralishlar	80	97	17	0,5	0,6

Tug'ilish darajasi. 2021 yilning yanvar-dekabr holatiga Ellikqal'a tumanida tug'ilganlar soni 3678 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (3844 kishi) nisbatan 166 taga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 22,5 promilleni tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (23,9 promille) nisbatan 1,4 promillega kamaydi.


Tug'ilish darajasining Ellikqal'a tumanida (23,9 dan 22,5 promille)ga kamayganligi kuzatildi.

O'lim darajasi. 2021 yilning yanvar-dekabr holatiga Ellikqal'a tumanida o'lganlar soni 663 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (628 kishi) nisbatan 35 taga o'limlar soni ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,1 promilleni tashkil qildi (2020 yil yanvar-dekabrida 3,9 promille).

Tabiiy o'sish. Yuqoridagi jadvaldan shuni kuzatishimiz mumkinki 2021 yilning yanvar-dekabr holatiga Ellikqal'a tumanida 3015 kishini tashkil qildi va 2020 yilning shu davriga (3216 kishi) nisbatan 201 taga kamayganini kuzatishimiz mumkin.


¹⁾dastlabki ma'lumot

Yanvar-dekabr oylarida tugʻilganlar, oʻlganlar, tabiiy oʻsish nikoh va ajralishlar koeffitsienti



Nikoh va ajralishlar. 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlarida 1391 ta nikohlar va 97 ta ajralishlar roʻyxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 8,5 ta nikoh (2020 yilning tegishli davrida 6,9 ta) va 0,6 ta ajralishlar (2020 yilning tegishli davrida 0,5 ta) toʻgʻri keladi.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti



Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldos	
	2020 y.	2021 y.	2020 y.	2021 y.	2020 y.	2021 y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 778	11 826	12 517	18 590	-4 739	-6 764
Ellikqal'a tumani	309	374	674	767	-365	-393
Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ulushi, %	4,0	3,2	5,4	4,1	x	x

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida tuman bo'yicha ko'chib kelganlar soni 374 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 767 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 393 kishiga (2020 yilning shu davrida minus 365 kishi) teng bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

